

FITRATNING “O‘QITG‘UVCHILAR YURTIG‘A” SHE‘RIDA G‘OYA VA MATN
MUNOSABATI

Giyosova Xilola Normaxamat qizi,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
hilolagiyosova0405@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501891>

Annotatsiya. Mazkur maqolada jadid adabiyotining yetuk namoyandasi Abdurauf Fitratning “O‘qitg‘uvchilar yurtig‘a” she‘ri matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Tadqiqot jarayonida she‘rning 1922-yilda chop etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamidagi toshbosma nashri asosiy manba sifatida olinib, 1991, 2000 va 2011-yillardagi nashrlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil davomida ayrim leksik birliklar va iboralardagi o‘zgarishlarning Fitratning g‘oyaviy pozitsiyasiga ko‘rsatgan ta‘siri ochib beriladi. Maqolada muallif matniga maksimal yaqinlik tamoyilining jadid adabiyoti namunalari uchun naqadar muhim ekanligi asoslab beriladi hamda ideologik tahrirlar natijasida yuzaga kelgan semantik siljishlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, jadid adabiyoti, matnshunoslik, muallif matni, g‘oya va matn munosabati, ideologik tahrir, pan-turkizm, she‘riy da‘vat, tanqidiy nashr.

Аннотация. В статье рассматривается стихотворение Абдурауфа Фитрата “O‘qitg‘uvchilar yurtig‘a” с точки зрения текстологии. Основным источником исследования является литографическое издание 1922 года, опубликованное в сборнике “O‘zbek yosh shoirlari”, которое сопоставляется с более поздними публикациями 1991, 2000 и 2011 годов. В ходе сравнительного анализа выявляются идеологические, семантические и орфографические изменения, внесённые в текст в различные исторические периоды. Особое внимание уделяется искажениям авторского замысла, связанным с заменой или устранением лексических единиц, выражающих призыв, сопротивление и пан-тюркистские взгляды поэта. В статье обосновывается необходимость опоры на наиболее ранний авторизованный текст как на основной источник при подготовке научно-критических изданий произведений джадидской литературы.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, джадидская литература, текстология, авторский текст, соотношение идеи и текста, идеологическая редакция, пантюркизм, поэтический призыв, критическое издание.

Abstract. This article examines Abdurauf Fitrat’s poem “O‘qitg‘uvchilar yurtig‘a” from a textological perspective. The primary source of the study is the 1922 lithographic edition published in the collection “O‘zbek yosh shoirlari”, which is comparatively analyzed alongside later editions issued in 1991, 2000, and 2011. The analysis reveals ideological, semantic, and orthographic alterations introduced into the text under different political and historical conditions. Particular attention is paid to modifications of lexical units that convey calls to action, resistance, and pan-Turkic ideas, which significantly affect the author’s original intent. The article emphasizes the importance of relying on the earliest text closest to the author’s will when preparing scholarly and critical editions of Jadid literary works.

Keywords: Abdurauf Fitrat, Jadid literature, textual criticism, authorial text, relationship between idea and text, ideological editing, pan-Turkism, poetic appeal, critical edition.

Kirish. XX asr boshlarida shakllangan jadid adabiyoti o‘zbek milliy uyg‘onish jarayonining badiiy ifodasi bo‘lib, unda adabiyot ijtimoiy-ma‘rifiy vazifani bajaruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Bu davr adabiy merosining asosiy xususiyatlaridan

biri – asarlarning murakkab tarixiy taqdiri, ya'ni ularning turli siyosiy-ideologik sharoitlarda qayta nashr etilishi, tahrirlanishi va ba'zan ongli ravishda o'zgartirilishidir. Shu sababli jadid adabiyoti namunalari, xususan, Abdurauf Fitrat ijodi matnshunoslik nuqtayi nazaridan alohida tadqiqotni talab qiladi [6].

Matnshunoslik fanida muallif matnini rekonstruksiya qilishda eng muhim tamoyil – **muallif nashriga maksimal yaqinlik** hisoblanadi [5]. Jadid asarlarida esa bu tamoyil ko'pincha buzilgan: ayrim g'oyaviy jihatdan “xavfli” deb topilgan leksik birliklar almashtirilgan, milliy va pan-turkistik qarashlar yumshatilgan yoki butunlay chiqarib tashlangan. Natijada asarning dastlabki estetik va g'oyaviy yaxlitligi izdan chiqqan.

Adabiyotlar tahlili. Abdurauf Fitrat ijodi va jadid adabiyotining g'oyaviy-estetik xususiyatlari adabiyotshunoslikda keng tadqiq etilgan bo'lsa-da, uning she'riy merosini matnshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishga oid ishlar nisbatan kam uchraydi. Fitrat asarlarining turli nashrlari o'rtasidagi tafovutlar va ularning ideologik sabablari masalasi ayrim tadqiqotlarda umumiy tarzda tilga olingan, biroq aniq bir she'r doirasida tizimli qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. B.Qosimovning matnshunoslikka oid nazariy qarashlari muallif matniga maksimal yaqinlik tamoyilini asoslab bergani bilan ahamiyatli bo'lsa, Sh.Nazarovanning tadqiqotlarida XX asr boshlaridagi o'zbek she'riyatining yangilanish jarayonlari yoritiladi. Mazkur maqola ana shu ilmiy qarashlarga tayangan holda, Fitratning “O'qitg'uvchilar yurtig'a” she'ri misolida g'oya va matn munosabatini konkret matnlar asosida tahlil qilishni maqsad qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada matnshunoslik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbai sifatida Abdurauf Fitratning “O'qitg'uvchilar yurtig'a” she'rining 1922-yilda chop etilgan toshbosma nashri olinib, keyingi yillardagi (1991, 2000, 2011) nashrlar bilan qiyoslab o'rganildi. Tahlil jarayonida leksik, semantik va ideologik o'zgarishlar aniqlanib, ularning muallif g'oyasiga ta'siri baholandi. Natijalar muallif matniga maksimal yaqinlik tamoyili asosida umumlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Abdurauf Fitrat ijodi jadid adabiyotining g'oyaviy-estetik cho'qqisi sifatida baholanadi. Uning she'riyati da'vatkorlik, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani uyg'otish va faol harakatga chorlov bilan ajralib turadi. 1922-yilda Toshkentdagi “Turkiston davlat nashriyotida” chop etilgan “O'zbek yosh shoirlari” to'plamidan o'rin olgan “O'qitg'uvchilar yurtig'a” she'ri Fitratning aynan shu pozitsiyasini yaqqol ifodalovchi asarlaridan biridir [1].

Mazkur she'r o'qituvchilar obrazida millatning ongli qatlamiga murojaat bo'lib, ularni xalqni uyg'otishga, zulm va jaholatga qarshi kurashga chorlaydi. Shu bois she'r matnidagi har bir leksik birlik, ayniqsa, da'vat va qarshilikni ifodalovchi so'zlar muhim semantik yuk ko'taradi. Ushbu birliklarning o'zgartirilishi yoki noto'g'ri talqini Fitrat g'oyasining buzilishiga olib keladi.

Shoirning “O'qitg'uvchilar yurtig'a” she'ri bugungi kunga qadar bir necha nashrlarda chop etilgan. Tadqiqot doirasida 1922-yilda toshbosma nashrdagi “O'zbek yosh

shoirlari”, “Sharq” jurnalining 6-soni (1991-yil 12-dekabr)da e’lon qilingan she’rlari [4]. 2000-yilda chop etilgan shoirning “Tanlangan asarlar”i [3] va 2011-yilda nashrdan chiqqan “Saylanma”si [2] o‘zaro qiyoslanadi.

Matnshunoslik metodologiyasiga ko‘ra, **muallif davriga eng yaqin bo‘lgan nashr – 1922-yilgi to‘plam** asosiy manba sifatida qabul qilinadi. Keyingi nashrlar esa yordamchi va qiyosiy manbalar vazifasini bajaradi. Maqolamiz ayna shu she’r tahliliga bag‘ishlanar ekan, “O‘zbek yosh shoirlari” she’riy to‘plamida keltirilgan mazkur she’rni to‘lig‘icha keltirishni o‘rinli deb topdik.

Orqadoshlar to‘planaylik jahlning uyin yiqg‘ali,
El ko‘zin olg‘an qorong‘u pardalarni yirtkali.
Biz erurmiz ma‘rifat arslonlari, ilm erlari,
To‘planaylik turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali.
Ellari mavhdan qutqaron ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur.

Biz erurmiz erning insonliq qonin qaynatg‘uchi,
Turk arslonin o‘runsiz uyqudan uyg‘otkuchi.
Ma‘rifat bayrog‘i ostida yig‘ildiq barchamiz —
Kim, biz otg‘onlarga haq yo‘llarin ko‘rsatkuchi.
Ellari mavhdan qutqaron ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur.

Haydang, o‘rtoq qutqaraylik jahldan Turonlari,
Yorutayliq ma‘rifat nuri-la Turkistonlari.
Ilm o‘chog‘ida yetishkan er yigitlar, to‘planing!
Qochirayluq jahl o‘rdusin, ochayluq onglari...
Ellari mahvdan qutqaron ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur [7].

“O‘zbek yosh shoirlari”/1922	“Sharq” 1991/№6	“Saylanma”/2011	Tanlangan asarlar/2000
to‘planaylik	to‘planmaylik	to‘planaylik	to‘planaylik
jahlning uyin	jangli o‘yin	jahlning uyin	jahlning uyin
turk elig‘a	turing, elg‘a	turk eliga	turk elig‘a
biz otg‘onlarga	bo‘z otlarda	bizi otganlarga	bizi otganlarga
o‘rdusin	urdusin	urdusin	urdusin

She’rning muhim misralaridan birida uchraydigan to‘planaylik fe’li Fitratning da’vatkorlik ruhini ifodalaydi. Ushbu birlik uch manbada saqlangan bo‘lsa-da, 1991-yilgi nashrda “to‘planmaylik” shaklida berilgan. Mazkur o‘zgarish grammatik jihatdan oddiy inkor shakli bo‘lsa-da, semantik va g‘oyaviy nuqtayi nazardan keskin burilishni yuzaga keltiradi. Fitrat she’riyati uchun xos bo‘lgan faol pozitsiya bu holda passivlikka almashadi.

Bunday o'zgarish muallif irodasiga zid bo'lib, uni tasodifiy xato yoki g'oyaviy ehtiyotkorlik mahsuli sifatida baholash mumkin.

“Jahlning uyini” birikmasi Fitrat she'riyatidagi ramziylikni yaqqol namoyon etadi. Bu yerda “jahl” tushunchasi individual hissiyot emas, balki milliy g'azab, ijtimoiy norozilik ramzi sifatida talqin etiladi. “Uyini” komponenti esa bu g'azabning harakatga aylanish jarayonini obrazli ifodalaydi. 1991-yilgi nashrda uchraydigan “jangli o'yin” varianti mazkur ramziy qatlamni yo'qqa chiqarib, mazmunni soddalashtiradi. Natijada Fitrat she'riyatiga xos ichki drammatizm va ruhiy keskinlik pasayadi. Shuning uchun “jahlning uyini” shakli matnshunoslik jihatdan ustun deb baholanadi.

She'rning eng bahsli nuqtalaridan biri turk elig'a birikmasidir. Ushbu birlik Fitratning pan-turkistik dunyoqarashini ochiq ifodalaydi. Sovet davri va undan keyingi ayrim nashrlarda bu birikmaning “turing, elg'a” shaklida berilishi ideologik tahrirning yaqqol namunasidir. Mazkur o'zgarish semantik jihatdan butunlay boshqa mazmunni yuzaga keltirib, Fitratning tarixiy-siyosiy qarashlarini yashiradi. “Turk elig'a” shakli esa orfografik jihatdan zamonaviylashtirilgan bo'lsa-da, mazmunni saqlab qolgan. Biroq ilmiy-tanqidiy nashrlar uchun asl shakl — “turk elig'a”ni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir.

Biz otg'onlarga birikmasi she'rda qarama-qarshi kuchlar mavjudligini ochiq ko'rsatadi. Bu yerda “biz” subyekti – uyg'onayotgan millat, “otg'onlar” esa zulm va jaholat timsolidir. 1991-yilgi nashrda uchraydigan “bo'z otlarda” varianti esa mazkur qarama-qarshilikni butunlay yo'qqa chiqaradi. Bunday semantik siljish matn mantiqini izdan chiqaradi va Fitratning kurash ruhiga putur yetkazadi. Shu bois “biz otg'onlarga” varianti asosiy matn sifatida qabul qilinadi.

She'rdagi o'rdusin/urdusin kabi variantlar semantik farq keltirib chiqarmaydi. Biroq matnshunoslikda tarixiy asarlarni nashrga tayyorlashda davr til xususiyatlarini saqlash muhim hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, “o'rdusin” shakli afzalroqdir.

Xulosa. O'tkazilgan matnshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, Abdurauf Fitratning “O'qitg'uvchilar yurtig'a” she'ri keyingi nashrlarda sezilarli darajada g'oyaviy va semantik o'zgarishlarga uchragan. Ayniqsa, 1991-yilgi nashrda ayrim leksik birliklarning o'zgartirilishi shoirning da'vatkorlik ruhi, kurashga chorlovchi pozitsiyasi va pan-turkistik qarashlarini sezilarli darajada zaiflashtirgan.

1922-yilda chop etilgan “O'zbek yosh shoirlari” to'plamidagi matn esa muallif davriga, til xususiyatlariga va Fitratning g'oyaviy-estetik niyatiga eng yaqin variant sifatida ajralib turadi. Tadqiqot natijalari jadid adabiyoti namunalarini nashrga tayyorlashda muallif matniga maksimal yaqinlik tamoyiliga qat'iy rioya qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Fitrat she'riyati misolida g'oya va matn uyg'unligi buzilgan holatlarda asarning estetik va tarixiy qiymati sezilarli darajada kamayishi ilmiy asosda isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fitrat A. O'zbek yosh shoirlari. – Toshkent: Turkiston davlat nashriyoti, 1922.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2000.
3. Fitrat A. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2011.
4. “Sharq” jurnali. 1991-yil, 6-son.
5. Qosimov B. Matnshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2004.
6. Nazarova Sh. “XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari”. Monografiya. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – B. 40.
7. Nazarova Sh. O'zbek yosh shoirlari. – Toshkent, Zabarjad Media, 2023.

